Bundan tashqari bir qator MDH mamlakatlari agrar iqtisodchi olimlaridan V.G. Afanasiev, L.B.Itelson, O.V. Kozlova, Y.Zavadsikiy, N.S.Sunsov[4] va boshqalarning ilmiy ishlarida qishloq xoʻjaligi tarmoqlarini innovatsion rivojlanti-rish, innovatsion tizimni shakllantirish masalalariga e'tibor qaratilgan.

Shuningdek respublikamiz iqtisodchi olimlari Oʻ.Umurzakov, T.Farmonov, U.Nigmatjonov, Q.Choriyev, N.Xushmatov[5] va boshqalarning ilmiy ishlarida qishloq xoʻjaligiga boshqarishning innovatsion uslublarini joriy etishning u yoki bu jihatlari boʻyicha ilmiy izlanishldar olib barishgan.

Ayniqsa, soʻnggi ikki yil ichida Oʻzbekiston respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev va Oʻzbekiston Respublikasi Xukumati tomonidan qishloq xoʻjaligi sohasini boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, soha vazirligi va unga bogʻliq idoralarda ham institutsional islohotlarni uygʻunlashgan holda amalga oshirish borasida Farmonlar va qarorlar, qabul qilinib, ular asosida tizimli va maqsadli yoʻl xaritalari, dasturlar va chora tadbirlar tasdiqlandi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Rivojlangan mamlakatlarning qishloq xoʻjaligi sohasidagi olimlar tomonidan oʻtkazilgan tadqiqotlar natijasiga koʻra, qishloq xoʻjaligi sohasini boshqaruv tizimidagi tashkilotlarda mehnat qilayotgan mutaxassis xodimlarning salohiyati bilan ulardan samarali foydalanish darajasida oʻrtasida katta tafovut majud, jumladan, qishloq xoʻjaligida mahsulot ishlab chiqarish mavsumiy xarakterda ekanligi, har bir turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish qisqa suddatli davrlarga toʻgʻri kelishi, qiloq xoʻjaligida yetishtrilayotgan ekin turlari (chorva mollari), ulardan olingan mahsulot miqdori (hosil), olingan daromad vaxoʻjaliklarning moliyaviy va yalpi ichki va tashqi omillarga bogʻliq boʻlib, u doimo turdi darajada boʻlishi ham koʻp hallarda ulkan va ta'sirchan oml siatida boshqaruvqi tomonidan mutaxassis – xodimlarni samarali boshqarishda turlicha ta'sir koʻrsatadi.

Ma'lumki, qishloq xoʻjaligida mehnat qilayotgan ishchi – xodimlarning daromadlarini oshirishda mavjud iqtisodiy, ijtimoiy va demografik mummolar muayyan murakkab vaziyatlarni keltirib chiqarmoqda. Mamlakatimizning qishloq xoʻjaligi sohasida islohotlarni amalga oshirish, sohani barqaror rivojlantirish tadbirlari amalda mehnat bozorida tegishli yoʻnalishlar boʻyia mutahassis xodimlar taqsimoti talab va extiyojini hisobga olinmasida, miqdoriy jihatdan nomutanosib holatlar yuz berayotgan sharoitda sodir boʻlmoqda.

1 Upravlenie – eto nauka i iskusstvo / A. Fayolь, G. Emerson, F. Teylor i dr. – M: Respublika,1992. – 298s.
2 Frederik Teylor, Prinsipы nauchnogo menedjmenta, sitiruetsya po Sb.: Teoriya upravleniya. Menedjment v 3-x chastyax, chastь 2, Minsk, GIUST BGU, 2007 g., s.167-169.
3 Krayner Styuart. Klyuchevыe idei menedjmenta: per s angl. M.: INFRA-M, 2002. XVIII S. 347
Afanasьev Viktor Grigorьevich Chelovek v upravlenii obщestvom 1977g 384s
Kuznesov Igorь Nikolaevich, Kozlova Olimpiada Vasilьevna Nauchnыe osnovы upravleniya proizvodstvom 1970g 288s
4 Sunsov N.S. Nauchno-pedagogicheskie osnovы upravleniya obщeobrazovatelьnoy shkoloy: Avtoref. dis. ... d-ra psd. nauk: 13.00.01. - M., 1981. - 32 s 2 Upravlinnya silьsьkogospodarsьkim virobnistvom u sistemi APK: pidruchnik / Y.S. Zavadsьkiy. – K.: Viщa shkola, 1992. – 367 s.
5 Choriyev Q.A. Qishloq xoʻjaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va ragʻbatlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). - Toshkent, 2014. - 10 b.; Xushmatov N., Fayzullaeva T. Qishloq xoʻjaligiga xizmat koʻrsatish tarmoqlari va fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish asoslari // Ekonomika i klass sobstvennikov. – Toshkent, 2004. - №1. – 46 b.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Respublika, hududlar va tuman darajasida boshqaruv tuzilmalarini tashkil qilinishi iqtisodiyotning boshqa sohalaridan keskin farq qiladi. Bunga eng avvalo:

- xo'jaligi yuritilishi keng maydonlarda olib borilishi;
- yil davomida, ya'ni yilning har kunida, kechayu – kunduz qishloq xo'jaligi sohasida mehnat qilinishi zarurligi;
- qishloq xo'jaligi sohasidagi mutaxassis xodimlar doimo qishloq xo'jaligi ekinlari va chorva mollari, ya'ni tirik oranizmlar (o'simlik, tuproq, chorva mollari va boshqalar) bilan doimiy e'tiborda bo'lishi;
- o'simliklar va chorva mollarini parvarish qilish har doim va har vaqt qat'iy ravishda aniq belgilangan vaqtlarda amalga oshirilishini talab etishi;
- yetishtiriladigan hosilni yig'ishtirib olish, saqlash, tashish, tayyorlash bilan bog'liq tadbirlar qisqa vaqtda tartib bilan amalga oshirilishini;
- o'simliklar chorva mollarining kasalliklari, hasharotlar va boshqa zararkunandalarga qarshi doimiy kurash olib boishning zarurligi va boshqa holatlar bu sohada mehnat qilayotgan oddiy mutaxassis xodim bilan bir vaqta boshqaruv tuzilmasining rahbar xodimlaridan katta ma'suliyat va qattiq mehnat qilinishi talab qilinadi.

Mazkur maqolamizda ta'kidalaganimizdek, qishloq xo'jaligi sohasi iqtisodiyotining qiyin va murakkab sohalaridan biri hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi sohasida ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash tabiat injiqliklari, tabiiy resurslar (suv va yer) foydalanadigan infratuzilma xizmati ko'rsatish – mexanizatsiya, kimyo, yeqilg'i va boshqa shu kabi sohalar bilan bog'liqligi sababli rahbar – mutaxassis kadrlardan doimo o'z vazifalariga ma'suliyat va talabchanlik bilan yondashishlarini talab etadi.

Ushbu holatni xisobga olib, Respublikamiz rahbariyati va xukumati tomonidan qishloq xo'jaligi sohasini boshqaruv tizimini malakali kadrlar bilan ta'minlash, Respublika vazirlik va idoralarning rahbarlari va o'rta bo'g'in bo'limlari rahbarlari – mutaxassis kadrlarini tayyorlash, kadrlar zaxirasini yaratish, ularining malakasini oshirish, umuman soha tarmoqlari bo'yicha mahsus rahbar mutaxassis kadrlarni tayyorlash masalasi doimiy nazoratga olingan.

Umumiy holatda shuni ta'kidlash zarurki, istiqbolda qishloq xo'jaligi sohasida funksional va innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

1. Respublika darajasida qishloq xo'jaligi sohasini boshqaruv tizimidagi vazirlik va idoralarda ilmiy muassalar va oliy o'quv yurtlarida ilg'or zamonaviy texnologiyalarni yaratilishi va joriy qilinishi borasida faoliyatini muvofiqlashtiruvchi jamoatchilik asosida kengashni tashkil qilish (resurstejamkor texnologiyalar va innovatsion ishlanmalarni buyurtmasi hamda ijrosini qabul qilish, ilmiy loyihalar va tadqiqot ishlari bo'yicha tajribalar almashish va boshqalar);
2. Qishloq xo'jaligi vazirligining Respublika, hududlar va tumanlar darajasidagi boshqarma hamda bo'limlarida funksional va innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirishga mos tuzilmalar faoliyatini shakllantirish;
3. Vazirlik markaziy apparati, hududiy , boshqarmalar va tumanlar Qishloq xo'jaligi bo'limlari faoliyatida funksional va innovatsion boshqaruv tizimini shakllantirish asosida boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida malakali kadrlar (ilmiy va amaliy jihatlarni o'zlashtirgan), zamonaviy kommunikatsiya – aloqalarning moddiy – texnika vositalari (orgotexnika, mahalliy va halqaro aloqa tizimi), axborot ma'lumot almashinuvi va boshqa vostalar bilan ta'minlanishini o'z ichiga oladi.

Qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarni jadallashtirish va izchil davom ettirish birinchi navbatda soha boshqaruv tizimini Respublika, hududlar va tumanlar darajasida maqbul tuzilmasini tashkil qilish tadbirlari islohotlar natijasida doimo takomillashtirilib borilmoqda.

Respublika hukumati tomonidan qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiyalasha, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash, istiqbolli rejalar va dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, qabul qilinadigan hukumatni qarorlari qabul qilinmoqda.

Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligi sohasini Respublika va hududlar darajasida funksional va innovatsion boshqaruv tizmining huquqiy aosolari bo'lib:

1. O'zbekiosn Respublikasining "Qishloq xo'jaligi to'g'risida" gi qonuni loyihasini ishlab chiqish;
2. O'zbekiston Respublikasining "Qishloq xo'jaligi kooperatsiya to'g'risida" gi qonun loyihasini ishlab chiqish;
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "Qishloq xo'jaligi sohasini funksional boshqaruv mexanizmini takomillashtiri to'g'risida" gi qaror loyihasini ishlab chiqish;
4. O'zbekiston Respublkasi Vazirlar Maxkamasining "Qishloq xo'jaligi suv xo'jaligi vazirligining faoliyatni takomillashtirish va moddiy – texnik ta'minotini mustahkamlash to'g'risida" gi qarorni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Ushbu qonunlar va huquqiy – me'yoriy xujjatlar soha boshqaruv oldida turgan vazifalar, majburiyatlar, boshqaruv tizimining tuzilmasi, davlat tomonidan soha boshqaruvini asalga oshirish tartibi, boshqaruv funksisi

va boshqa shu kabi asosiy masalalarga alohida e’tibor qaratilishi belgilangan. Ammo, shu bilan bir qatorda, qonunlarda sohani funksional boshqaruvini yo‘lga qo‘yish, asosiy Ustav va ichki tartiblarga muvofiq, soha vazirligi, hududiy boshqarmalar, tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limlari oldidagi funksional vazifalarni bajarilishiga ustuvor huquq va ma’suliyatni yuklatilishi ko‘zda tutilishi zarur.

Davlat, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan qishloq xo‘jaligi sohasidagi vakolatlari, sohani tartibga solish, boshqarish, qo‘llab – quvvatlash, shartnomaviy munosabatlar, moliyaviy munosabatlar, sug‘urtalash, kreditlash va boshqa shu kabi tadbirlar bilan bir vaqtda mohani milliy va mahalliy boshqarish bo‘g‘inlarida funksional va innovatsion boshqaruvini shakllantirishning tashkiliy, iqtisodiy va huquqiy jihatlari obyektiv zarurligi asoslanib berilmoqda.

Sohani boshqaruv tuzilmalarida funksional va innovatsion boshqarishni shakllantirish va rivojlantirish eng avvalo:

- respublika, hududlar va tumanlar darajasida amalga oshiriladigan barcha tadbirlarni mutanosib ravishda taqsimlanishi;
- ularni boshqaruvning har bir bo‘g‘inida takrorlanishiga yo‘l qo‘ymasligi;
- har bir bo‘g‘inda bajariladigan tadbirlarni izchil hamda tizimli davom ettirilishi;
- boshqaruv tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyatini yaratilishi;
- har bir bo‘g‘inda belgilangan agrotexnologik tadbirlarni o‘z muddatida sifatili bajarilishiga erishish;
- bajariladigan har bir jarayon ustidan tegishli bo‘g‘in boshqaruvi tomonidan doimiy monitoring olib borish imkoniyatini yaratilishi, ya’ni har bir bo‘g‘inda g‘ar bir mutaxassis xodim o‘ziga yuklatilgan vazifa va topshiriqlarni bajarilishga o‘ta ma’suliyat va javobgarlikni his qilgan holda yondalishining huquqiy poydevorini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi .
- tadqiqot izlanishi jarayonida O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risida” gi qonunining soha barqaror rivojlantirishidagi o‘rni va mohiyati asoslanib berildi.

O‘zbkiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya munosabatlari to‘g‘risida” gi qonunni qabul qilinishi umumiy holatda nafaqat kooperatsiyaga a’zo xo‘jalik subyektlari faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishni takomillashirish, balki xo‘jalik subyektlarinig ixtisoslashganlik yo‘nalishlari va sohasni hududiy boshqarish tuzilmasi faoliyatini yanada samarali yo‘lga qo‘yilishi sohasida ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. (1– jadval).

Qonun loyihasini tahlil qilish natijalariga ko‘ra, agrosanoat majmuasida kooperatsiya munosabatlari bu qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va iste’molchilarga tayyor mahsulot sifatida yetkazib berish aosida o‘z daromadlarini ko‘paytirishga qaratilgan mustaqil xo‘jalik subyektlarining o‘zaro kelishilgan va erkin holdagi birlashmasi bo‘lib, ular o‘zaro kooperatsiya jarayonini tashkil qiladi. Unda qatnashadigan har bir a’zo o‘z qo‘shgan hissasiga qarab daromad oladi.

Demak, huquqiy jaxatdan kooperatsiya munosabatlariga a’zo xo‘jaliklar faoliyatini hamkorlikda boshqarish, har bir a’zo – xo‘jalik subyektining faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida oqilona boshqaruv qarorlarini qabul qilishiga erishish, boshqaruv qarorlarini hamkorlikda, kelishuv va oshkoralik asosida qabul qilinishiga erishiladi.

1– jadval. O‘zbekiston Respublikasining “Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya to‘g‘risida” gi qonunini sohaning boshqaruv tuzilmasini takomillashtirishdagi ahamiyati[6]

| № | Mazmuni | Izoh |
|---|---|---|
| 1. | Kooperativlarni tashkil qilish va faoliyat ko‘rsatishni asosiy tamoyillari belgilanadi | Qishloq xo‘jaligida kooperativ tvshkilotlarni tashkil qilish va ular faoliyatini boshqarish, muvofiqlashtirishning asosiy tamoyillari hamda ustuvor yo‘nalishlari bayon qilinadi. |
| 2. | Qishloq xo‘jaligida kooperativlarga a’zolik bo‘lish tartibi tasdiqlandi | Qishloq xo‘jaligi sohasidagi kooperativ tashkilotlarga a’zolaik va undan chiqishga qo‘yiladigan talablar, ularning vazifalari, majburiyatlari, vakolatlari bayon qilinadi. |
| 3. | Qishloq xo‘jaligida kooperativlarni boshqaruv organlarini tashkil qilish tartibi belgilanadi | Qishloq xo‘jaligi kooperativ tvshkilotlarida boshqaruv organi: tuzilmasi, tarkibi, saylash va saylanish talablari tasdiqlanadi. |
| 4. | Qishloq xo‘jaligida koopertiv faoliyatining asoslari belgilanadi | Qishloq xo‘jaligi kooperativ tashkilotlarini faoliyatlarini asosiy yo‘nalishlai bayon qilinadi. |

Qishloq xo‘jaligida mehnat resurlarining miqdori hududlar bo‘yicha tarixan shakllaggan tabiiy – iqtisodiy sharoitlar, qishloq aholisining ko‘payishi vva u bilan boliq demografik holatning o‘ziga hos hususiyalariga bog‘liq bo‘lsa-da, u bevosia mahsulotni ishlab chiqarish xajmiga yoki miqdoriga bog‘liq emas.

6 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida, shuningdek amaldagi me’yolarga nisbatan ko‘proq miqdorda dehqonlar (ishchilar) mehnat qilmoqda, miqdori amalda agrotexnik tadbirlar bo‘yicha belgilangan tadbirlarni bajarish uchun zarur bo‘lagn haqiqiy talabga nisbatan ham ko‘proqni tashkil qiladi.

Respublikmizning qishloq hududlarida butun mamlakat aholisining 47 foiziga yaqin qismi istiqomat qiladi, qishloq aholisining o‘rtacha bandlik darajasi oxirgi yillarda 90 foizni tashkil etadi. Natijada Respublikamizning shahar aholisiga nisbatan qishloq aholisi orasida ishsizlik darajasiga nisbatan yuqoriligi bilan xarakterlansa, doimiy ish joylarining yetishmasligi ham qishloq aholisini shaharlarga migratsiyasi faollashib borayotgani kuzatiladi.

Qishloq xo‘jaligi sohasining ishlab chiqarish qismida band bo‘lgan mutaxassis – xodimlar, shuningdek oddiy ishchilar sonining kamayib borishining asosiy sababi – bu oylik ish haqi miqdorini iqtisodiyotning boshqa sohalariga nisbatan moddiy rag‘batlantirish va imtiyozlar ko‘p hollarda qo‘llanmasligi bilan asoslanadi.

Qishloq yoshlarining sohada mehnat qilishini pasayishini asosiy sabablaridan biri – qishloq xo‘jaligi sohaida mehnatning murakkabligi, doimiyligi, moliyaviy rag‘batlantirishning pastligi yoki yo‘qligi, ish haqi miqdorining past darajadaligi va belgilangan muddatlarda to‘lanmasligi, imtiyozlarini yo‘qligi ham hisoblanadi.

Mamlakatimizning agrar sohasi va iqtisodiyotimizning boshqa sohalari o‘rtasida ish haqi darajasining o‘rtasidagi farq miqdori salkam 60-70 foizni tashkil qiladi.

Bugungi kunda iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi korxona va tashkilotlarda ishchilar sonining qisqarishi, ayrim korxonalarni tugatilishi yoki mulkdorlarning o‘zgarishi natijasida sohada ishchilar sonini keskin tushib ketishigia va boshqa kasb egalari qishloq xo‘jaligiga kirib kelishga zamin yaratdi.

Bunga aksincha holatda, qishloq xo‘jaligining ayrim yo‘nalishlari, jumladan mexanizatsiya, kasalliklarga qarshi kurashish, agrotexnologik tadbirlarni mexanizatsiya yordamida bajaruvchi mutaxassis – xodimlar, dalada mehnat qilayotgan xodimlarining malakaviy salohiyatini pasayishi yoki sifat darajasining nisbatan yomonlashuvi ham ro‘y bermoqda.

Ma’lumki, har yili qishloq hududlarida qishloq xo‘jaligi o‘quv muassasalarining bitiruvchilari soninig qisqarishi, kollej bitiruvchilarining juda kam qismi qishloq xo‘jaligida mehnat qilish uchun qolayotganligi kuzatilmoqda. Albatta, yoshlar yoki qishloq xo‘jaligining yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan tarmoqlarida mehnat qilish qobilyatiga ega bo‘lgan ishchi xodimlarni ichtimodiyotning boshqa sohalariga o‘tib ishlashi birtomondan, qishloq xo‘jaligi sohasi uchun samarli hisoblanadi. Ammo, ikkinchi tomondan, har qanda y sharoitda ham qishloq xo‘jaligi soha boshqaruvida, shunigdek qishloq xo‘jaligi subyektlari sifatida fermer va shirkat xo‘jaliklarida malakali va tajribali mutaxassis – xodimlar va ishchilar mehat qilishi zarur.

Yuqorida ta’kidlangan mazkur salbiy holatlar pirovard natijada ma’lum bir muddatdan keyin sohaga qishloq aholisining qishloq xo‘jaligi sohasida ish yuritishini tushunmaydigan, yer bilan ishlay olmaydigan, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlari bo‘yicha ma’lumotga ega bo‘lmagan insonlar toifasini mehnat qilishga sabab bo‘lishi mumkin.

Sohadagi barcha tarmoqlarni malakali kadrlar bilan ta’minlashni barqaror emasligi (salohiyatli kadrlar kamayib borishi) ham sohada ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Qishloq xo‘jaligi sohasida boshqaruv tizimi o‘z hududlaridagi qishloq xo‘jaligi sohasida aholi mehnat bandiligini ta’minlash uchun birinchi navbatda mavjud ish joylarining tarkibi, rasmiy va norasmiy mehnat faoliyati bo‘yicha band bo‘lganlarining klassifikatsiyasini aniqlashtirish borasida ham ish olib borishlari talib etiladi. Bunda mavjud bandlikni tartibga solishda nafaqat yangi ish joylarini tashkil qilish va saqlash, balki qishloqda hususiy va kichik ishlab chiqarish shahobchalarining maqbul hamda muqobil faoliyat turlarini tashkil qilish, qishloq xo‘jaligi va noqishloq xo‘jalikda ban bo‘lganlarinng (asosan fermer xo‘jaliklari) mehnat faoliyatidan foydalanayotganlar maqomini belgilash ham dolazarb masala hisoblanadi.

Bu nafaqat bandlik va doimiy ishchi o‘rinlarning samarali tuzilmasini shakllantirishga, bilki tashkil qilinayotgan tarmoqlar faoliyatining har bir turi bo‘yicha o‘ziga hos xususiyatlarini hisobga olgan holda va iqtisodiy qo‘llab – quvvatlash mexanizmlarini joriy qilish imkoniyatini yaratadi.

Qishloq aholisining turmush darajasi va ularning daromadlarini barqaror oshirish tadbirlari yaqin va uzoq muddatli istiqbolda qishloq hududlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlash sohasini rivojlantirishni ta’minlashda muhim indikator bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizning barcha qishloq hududlarida qishloq aholini soni yaqin 2028 yil va 2030 yillargacha hisob qilingan prognoz shuni ko‘rsatadiki, qishloq aholisi 2.0-2.3 foiz doimiy o‘sishga ega bo‘ladi. Ammo, shu bilan birga qishloq aholisining ma’lumotlilik darajasi shahardagiga nisbat past bo‘lmoqda.

Turli mulkchilik shakllariga asoslangan qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishining samarali faoliyat ko‘rsatishi uchun malakali, oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi dolzarb masala hisoblanadi va bu tizim uzoq muddatli hamda maqsadli yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta’minlash va iste’mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan

miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi oziq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish; shuningdek, qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish masalalari dolzarb vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Ta’kidlash joizki, xozirgi vaqtda qishloq xo‘jaligini boshqarish tizimda quyidagi muammolar maqjud, ya’ni:

- fermerlar uchun resurslar yetkazib berish hamda mahsulotlar ishlab chiqarish va sotishda davlatning bevosita ishtirok etishi sohaga xususiy investitsiyalar jalb qilinishini cheklab qo‘ymoqda;
- agrobiznes subyektlariga maslahat xizmatlari ko‘rsatish tizimining rivojlanmaganligi, biznesni boshqarish ko‘nikmalarining yetishmasligi, agrosanoat majmui va bank sohalarida kadrlar salohiyatining cheklanganligi xalqaro moliya institutlari kredit mablag‘larini yetarli darajada samarali o‘zlashtirilmayapti;
- investitsiyalarni boshqarish samaradorligini baholashning mustaqil monitoringi hamda baholash strukturasi, tizimi va mexanizmlari mavjud emas va boshqalar.

Strategiyada qishloq xo‘jaligi sohasida davlat boshqaruvining zamonaviy tizimlarini rivojlantirishning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi, jumladan:

- agrosanoat majmuidagi davlat organlarining funksiyalari asosan ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarishga yo‘naltirilgan va ularning ayrimlari xususiy sektorga o‘tkazilishi mumkin;
- meva-sabzavotchilik va chorvachilik sohalarida sezilarli o‘sish kuzatilishiga qaramasdan, xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi, moddiy resurslar ta’minoti hamda ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalarining aksariyat qismi paxta xom-ashyosi va boshoqli don yetishtirishga mo‘ljallangan;
- xalqaro standart va talablarga javob beradigan zamonaviy va sifatli xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining yetishmasligi sohadagi muammolarni yanada murakkablashtirmoqda. Bu birinchi navbatda oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi, veterinariya va fitosanitariya bilan bog‘liq davlat xizmatlariga taalluqlidi;
- yangi bozorlarga chiqish uchun ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarga sertifikatsiyalash va maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi xususiy sektorni rivojlantirish zarur.
- qishloq xo‘jaligi vazirligini funksional baholash (Management Functional Assessment Model — MFAM) va uning natijalari bo‘yicha yangi vakolat va faoliyat yo‘nalishlarini belgilash maqsadida vazirlikning tuzilmasi va bo‘linmalari faoliyatini qayta ko‘rib chiqish;
- strategiyani amalga oshirishga mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasida davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish;
- tarmoq vazirlik va idoralar faoliyatining samaradorligini baholash orqali rag‘batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda boshqaruv xodimlarning strategik va loyiha boshqaruvidagi salohiyatini oshirish;
- tarmoqda qo‘shimcha xizmatlarni ko‘rsatish maqsadida davlat-xususiy sheriklik modelini rivojlantirish;
- sohaning manfaatdor tomonlari (davlat, xususiy va jamoat tashkilotlaridan iborat) forumini tashkil etish;
- qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohasini rivojlantirish bo‘yicha Hukumat va hamkorlar (sohani qo‘llab-quvvatlashga jalb etilgan barcha donorlar va xalqaro moliya institutlari) forumini tashkil etish.

2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonda belgilangan dasturiy tadbirlar doirasida qishloq xo‘jaligini kompleks rivojlantirish, qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, sohada bozor munosabatlarini joriy etish, qayta ishlash va eksport infratuzilmasini rivojlantirish, agroxizmatlar tizimini hamda fermer va dehqonlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Agrar sohani rivojlantirish, islohotlarni chuqurlashtirish, raqobatbardosh, bozor va eksportga yo‘naltirilgan sifatli mahsulot ishlab chiqarishni oshirish, aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, eksport geografiyasini kengaytirish, qo‘shilgan qiymat zanjirni yaratish, sohaga ilm-fan va innovatsiyalarni joriy etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi PF-5853-son Farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020 -2030 yillarga mo‘ljallangan strategiya”si qabul qilindi.

Mazkur Strategiyada sohani rivojlantirishning 9 ta ustuvor yo‘nalishlari, qisqa va uzoq muddatli islohotlarni amalga oshirish belgilab berildi.

Strategiyada belgilangan vazifalar ijrosini tashkil etish hamda sohani boshqarishni tizimli muvofiqlashtirish maqsadida Qishloq xo‘jaligi vazirligi tuzilmasi takomillashtirildi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli Farmon va qarorlari bilan Qishloq xo‘jaligi vazirining qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini joylashtirish, yer monitoringini amalga oshirish hamda Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha hamda Qishloq xo‘jaligi sohasiga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, sohani raqamli tranformatsiya qilish hamda jadal raqamlashtirish va dasturiy mahsulotlarni joriy etish bo‘yicha vazir o‘rinbosarlari lavozimlari joriy etildi.

Vazirlik boshqaruv tuzilmasida Qishloq xo‘jaligini 2020-2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish, Dorivor o‘simliklar yetishtirish, Organik ishlab chiqarishni rivojlashlantirish, Strategik tahlil, statistika

va raqamlashtirish, Qishloq xo‘jaligi ekinlari va yerlarini monitoring qilish boshqarmalari hamda Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish bo‘yicha bosh boshqarma tashkil etildi.

Strategiya doirasida 2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasining 7 ta Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 12 ta Farmon va 41 ta qarorlari hamda Hukumatning 33 ta qarorlari qabul qilinib, islohotlarning huquqiy asoslari yanada takomillashtirildi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-martdagi PQ-4633-son “Paxtachilik sohasida bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda PQ-4634-son “G‘alla yetishtirish, xarid qilish va sotishga bozor tamoyillarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bilan davlat buyurtmasi asosida paxta xom ashyosi va boshoqli don yetishtirish, paxta xomashyosiga davlat tomonidan narx belgilash amaliyoti bekor qilindi.

Sohada agroxizmatlar tizimi faoliyatini muvofiqlashtirish va tubdan takomillashtirish, “fan – ta’lim - ishlab chiqarish” zanjirining integratsiyasini ta’minlash, qishloq xo‘jaligida qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish, ilmiy-tadqiqot muassasalarining faoliyatini tubdan isloh qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 3 fevraldagi gi PF-6159-sonli Farmoni hamda 2021 yil 3 fevraldagi PQ-4975-sonli qarori bilan Qishloq xo‘jaligida ta’lim, ilm-fan, ishlab chiqarish hamda agroxizmatlar ko‘rsatishning uzviy tizimini o‘zaro bog‘laydigan Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi hamda “Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar (AKIS)” Agroxizmatlar markazlari tashkil etildi.

AKIS markazlarida 100 dan ortiq agroxizmatlar ko‘rsatiladi hamda “daladan iste’molgacha” tamoyili asosida xalqaro sifat standarti va sertifikatlari joriy etilmoqda.

Bugungi kunga kelib, respublikada qariyb 1,5 mln gektar maydonda jami 456 ta agroklaster va kooperatsiyalar shundan, 97 ta paxta-to‘qimachilik, 64 ta g‘allachilik, 152 ta meva-sabzavotchilik, 33 ta sholichilik, 5 ta dorivor o‘simliklarni yetishtiruvchi klasterlar hamda 94 ta meva-sabzavotchilik va 11 ta paxta-to‘qimachilik kooperatsiyalari samarali faoliyat yuritmoqda.

Joriy yilda Prezidentimizning “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifat va xavfsizlik ko‘rsatkichlari xalqaro standartlarga muvofiqligini ta’minlashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5995 son Farmoni qabul qilinib, 155 ta fermer xo‘jaliklari va korxonalarga xalqaro Global G.A.P. standarti joriy etildi.

Qishloq xo‘jaligi sohasini yanalda rivojlantirish boshqaruv tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish bo‘yicha yuqorida qayd etilgan farmon va qarorlarning ijrosini ta’minlashda amalga oshirilayotgan ishlar bilan bir qatorda ularning mantiqiy davomi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi sohasi faoliyatini funksional baholash, uning natijalariga ko‘ra agrar soha vazirlik va idoralar faoliyatining yangi vakolat va faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida tashkiliy tuzilmasi va hududiy bo‘linmalarining funksiyalari qayta ko‘rib chiqilishini davrning o‘zi taqozo etmoqda.

Bunda:

vertikal va gorizontal boshqaruv tizimini takomillashtirish;

davlat xizmatlarining rolini bosqichma-bosqich kamaytirish va xususiy sektorga berish;

kadrlar salohiyati kompetensiyasini oshirish bo‘yicha kasbiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi

Jumladan, Qishloq xo‘jaligi vazirligining faoliyatini funksional baholash, uning natijalariga ko‘ra vazirlik faoliyatining yangi vakolat va faoliyat yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida tashkiliy tuzilmasi va hududiy bo‘linmalarining funksiyalari qayta ko‘rib chiqilishi lozim.

Shu bilan birga qishloq xo‘jaligi sohasi faoliyatini davlat tomonidan muvofiqlashtirish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilgan tizimli tadbirlar qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiruvchilarning iqtisodiy holati, moliyaviy barqarorligini ta’minlashga, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga, agrar sektorning eksport salohiyatini oshirishga qolaversa sohada davlat aralashuvini kamaytirishga, fermer va dehqonlarimizni iqtisodiy samaradorligining oshishiga xizmat qilishi ta’minlanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekinlar holatini nazorat qilishning idoraviy va idoralararo axborot tizimlarini joriy etish, agrosanoat majmuidagi tashkilotlar tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlarni, shu jumladan, davlat xizmatlarini to‘liq elektron shaklga o‘tkazish, qishloq xo‘jaligi sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish uchun davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida maqsadli loyihalarni amalga oshirish kabi ustuvor yo‘nalishlardan biridir;

Muallif tomonidan rivojlangan xorijiy davlatlar qishloq xo‘jaligi boshqaruv tizimining funksional-innovatsion tuzilmalari hamda respublika agrosanoat majmuidagi vazirliklar va qo‘mitalarning boshqaruv tizimi innovatsion-funksional tuzilmlarini, shuningdek, bugungi kunda qishloq xo‘jaligi boshqaruv tizimida axborot-kommunikatsiya va raqamlashtirish texnologiyalarining jadal sur’atda joriy etilib borilishini o‘rganish va tahlillar asosida boshqaruvning o‘zaro bog‘liqlik funksional sxemasi tavsiya etildi;

Qishloq xo‘jaligi sohasi boshqaruv tuzilmasini agrosanoat majmuasi tizimidagi modernizatsiyalash tadbirlari va tuzilmaviy o‘zgartirishlarni amalga oshirilishi natijasida boshqaruv tizimida ham tubdan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda va bu jarayon izchil davom etishi davr talabi bo‘lib qolmoqda. Mazkur islohotlarni hisobga olgan holda istiqbolda qishloq xo‘jaligi sohasining vertikal respublika, viloyat va tuman darajasidagi boshqaruv tuzilmalariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish, boshqaruv tuzilmasining maqsadi, samaradorligi va ijrochilik funksiyalarini oshirib borish talab etiladi;

Qishloq xo‘jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini isloh qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish masalalari dolzarb vazifalardan biridir.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining“ Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020-yil 7-aprel. www.lex.uz
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni.
3. Choriyev Q.A. Qishloq xo‘jaligida innovatsiyalar joriy qilish tizimini shakllantirish va rag‘batlantirish istiqbollari (uslubiy tavsiyalar). - Toshkent, 2014. - 10 b.;
4. Xushmatov N., Fayzullaeva T. Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatish tarmoqlari va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish asoslari // Ekonomika i klass sobstvennikov. – Toshkent, 2004. - №1. – 46 b.
5. Agro.uz

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

# IV GLOBAL VA MILLIY IQTISODIYOT TRENDLARI: “O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI FORUMI

## YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT

### Ilmiy elektron jurnal

### (MAXSUS SON)

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030

23-24 OCTOBER 2025

3RD CONFERENCE:
MACHINE LEARNING AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A NEW APPROACH TO ECONOMETRIC ANALYSIS

- ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND DIGITAL TECHNOLOGIES
- ECONOMETRICS AND BUSINESS ANALYTICS
- DATA SCIENCE (DATABASES)
- DIGITAL GOVERNMENT
- DIGITAL TRANSFORMATION
- ECONOMIC STATISTICS
- QUANTITATIVE MEASUREMENT OF THE ECONOMY

2nd CONFERENCE:
BANKING AND FINANCIAL SYSTEM AND DIRECTIONS FOR DEVELOPING THE PRIVATE SECTOR

23-24 2025 OCTOBER

- Makroiqtisodiy barqarorlik
- Yashil iqtisodiyotda mehnat bozori
- Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar
- Yashil investitsiya va kreditlash
- Yashil texnologiyalar
- Eko turizm
- Yashil innovatsiyalar

СТРАТЕГИЯ «УЗБЕКИСТАН –2030»

strategy2025.tsue.uz

YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH SHAROITIDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH YO‘NALISHLARI

2030

https://strategy2025.tsue.uz/

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

ФОРУМ

UZBEKISTAN STRATEGY

Elektron pochta: sq1141983@gmail.com
Telefon: +998 93 124 57 11
Sayt: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz
Telegram: https://t.me/taraqqiyot_va_talim_uz

ISSN: 2992-8982
ISBN 978-9910-8110-8-1
9 789910 811081

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS"

1st CONFERENCE:
DIRECTIONS FOR ENSURING SUSTAINABLE ECONOMIC GROWTH IN THE CONTEXT OF TRANSITION TO A GREEN ECONOMY

2030
UZBEKISTAN STRATEGY

BANK-MOLIYA TIZIMI VA XUSUSIY SEKTORNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI